

## **XUSUSIY MAKtablarda TASHKiliY TUZiLMasi VA BOSHQARUV STRATEGiYALARINI TAKOMiLLASHTiRiSH**

**Abdullahayev Farrux Rustam o‘g‘li,**

*PhD, “Salam-school” nodavlat ta’lim muassasasi direktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xususiy maktablarning boshqaruv tizimi va tashkiliy tuzilmasi tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar asosida strategik menejment, akademik va moliyaviy boshqaruvning samaradorligi o‘rganilib, O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan jihatlar aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xususiy maktablar, boshqaruv tizimi, tashkiliy tuzilma, strategik menejment, ta’lim sifati.

**Аннотация:** В данной статье анализируется система управления и организационная структура частных школ. На основе международного опыта изучена эффективность стратегического менеджмента, академического и финансового управления, а также выявлены аспекты, применимые в Узбекистане. По результатам исследования даны рекомендации по повышению качества образования.

**Ключевые слова:** частные школы, система управления, организационная структура, стратегический менеджмент, качество образования.

**Annotation:** This article analyzes the management system and organizational structure of private schools. Based on international experience, the effectiveness of strategic management, academic and financial governance has been studied, and aspects applicable to Uzbekistan have been identified. Recommendations for improving the quality of education are provided based on research findings.

**Keywords:** private schools, management system, organizational structure, strategic management, education quality.

Zamonaviy xususiy maktablar faqat ta'lim jarayonini tashkil etish bilan cheklanmay, balki samarali boshqaruv tizimini shakllantirish orqali raqobatbardosh ta'lim muassasasi sifatida rivojlanish majburiyatini ham o'z zimmasiga olmoqda. Xususiy maktablarning tashkiliy tuzilmasi ularning boshqaruv sifati, ta'lim samaradorligi va moliyaviy barqarorligi bilan bevosita bog'liq. To'g'ri tashkil etilmagan boshqaruv tizimi maktabning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi, sifat pasayishi va resurslardan noto'g'ri foydalanishga olib kelishi mumkin.

Xususiy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimi direktor, akademik bo'lim, moliyaviy boshqaruv, marketing va ma'muriyat o'rtaсидаги узвији aloqadorlik tamoyiliga asoslanishi kerak. Samarali boshqaruv uchun:

O'qituvchilar tarkibini shakllantirish va rivojlantirish

Moliyaviy boshqaruvning shaffofligi

Maktabning brend strategiyasini ishlab chiqish

Ta'lim sifatini doimiy baholash va takomillashtirish kabi omillar muhim sanaladi.

Rivojlangan mamlakatlarning xususiy ta'lim tajribasi shuni ko'rsatadiki, turli boshqaruv modellaridan samarali foydalanish orqali xususiy maktablar yuqori natijalarga erishmoqda. Masalan:

Finlandiyada xususiy maktablar o'quv dasturlarini o'ziga xos shakllantirish erkinligi va o'qituvchilarning yuqori avtonomiysi bilan ajralib turadi.

Germaniyada ta'lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligi dual tizim va davlat-xususiy sheriklik orqali ta'minlanadi.

Avstraliyada xususiy maktablar mijoz yo'naltirilgan boshqaruv tizimi orqali ota-onalar va o'quvchilar ehtiyojlariga mos ta'lim dasturlarini shakllantiradi.

Janubiy Koreyada innovatsion texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish ta'lim jarayoni boshqaruvini avtomatlashtirishga yordam bermoqda.

Gollandiyada xususiy maktablar moliyaviy va akademik avtonomiyaga ega bo'lib, davlat tomonidan ma'lum darajada qo'llab-quvvatlanadi.

O‘zbekistonda esa xususiy maktablar soni ortib borayotganiga qaramay, ularning boshqaruv tizimi ko‘pincha an’anaviy yondashuvlarga asoslanib qolmoqda. Menejment va tashkiliy tuzilma bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar yetarlicha joriy etilmagan, bu esa maktablarning samarali faoliyat olib borishiga to‘sinqlik qilmoqda.

Ushbu maqolada xususiy maktablarning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, xalqaro tajribani tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitida samarali boshqaruv modellarini qo‘llash imkoniyatlari o‘rganiladi.

Ushbu tadqiqotda xususiy maktablarning tashkiliy tuzilmasini shakllantirish va takomillashtirishga doir ilmiy yondashuvlar o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy metodlari nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va amaliy tadqiqot usullaridan iborat bo‘lib, ular xususiy maktablarning boshqaruv tizimini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Nazariy tahlil orqali ta’lim boshqaruvi va menejment bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning ta’lim boshqaruvi bo‘yicha hisobotlari va ta’limda menejmentga oid zamonaviy yondashuvlar o‘rganildi. Bu jarayonda UNESCO, OECD va World Bank kabi tashkilotlarning nashrlari va statistik ma’lumotlaridan foydalanildi. Xususiy maktablarning boshqaruv tizimiga doir ilmiy maqolalar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida xususiy maktablarning tashkiliy tuzilmalari davlat maktablari boshqaruv tizimi bilan solishtirildi. Shu bilan birga, turli mamlakatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilib, ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari baholandi. Bu jarayonda rivojlangan davlatlarning xususiy ta’lim muassasalaridagi tashkiliy model va boshqaruv mexanizmlari tahlil qilindi. Xususan, Finlandiya, Germaniya, Avstraliya, Janubiy Koreya va Gollandiya tajribalaridan o‘rganishlar olib borildi. Bu davlatlarda xususiy maktablarning boshqaruv modellarini o‘ziga xosligi, moliyalashtirish tizimi va ta’lim sifatiga ta’siri o‘rganildi.

Amaliy tadqiqot doirasida O‘zbekistonda xususiy maktablarning boshqaruv tizimiga oid mavjud muammolar va ularni hal qilish strategiyalari tahlil qilindi. Xususiy ta’lim muassasalari rahbarlari, akademik bo‘lim vakillari va moliyaviy boshqaruv xodimlari bilan suhbatlar o‘tkazilib, ularning tajribasi va fikrlari hisobga olindi. Bundan tashqari, mahalliy

xususiy maktablarning tashkiliy tuzilmasi, ularning boshqaruv tizimi va kadrlar siyosati o‘rganildi.

Tadqiqot obyekti xususiy maktablarning boshqaruv tizimi va tashkiliy tuzilmasi hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa xususiy maktablarning direktorlari, akademik bo‘limlari, moliyaviy boshqaruvi va strategik rivojlanish yo‘nalishlari doirasida olib borildi. Tadqiqot doirasida ilmiy menejment modellaridan biri sifatida ta’lim sektorida qo‘llanilayotgan integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari ham tahlil qilindi.

Ma’lumotlar manbalariga xalqaro ta’lim tashkilotlari va nashrlar, statistik ma’lumotlar, ilmiy maqolalar va amaliy tadqiqot natijalari kiritildi. Xalqaro tajribalar asosida xususiy maktablarning tashkiliy tuzilmalari va boshqaruv strategiyalari tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekistonda mavjud xususiy ta’lim muassasalarining tashkiliy tuzilishi va boshqaruv modellariga oid mavjud tajriba ham tadqiqot doirasiga kiritildi.

Tadqiqot chegaralarini belgilash jarayonida mavzu faqat xususiy maktablar boshqaruviga qaratildi, davlat maktablari chuqur tahlil qilinmadni. Barcha xususiy maktablar emas, balki iqtisodiy barqaror va rivojlanish strategiyasiga ega bo‘lgan maktablar misol tariqasida tanlandi. Tadqiqot asosan O‘zbekiston sharoitiga moslash mumkin bo‘lgan tajribalarni o‘rganishga qaratildi.

Tahlil yo‘nalishlari xususiy maktablarning tashkiliy tuzilmasi qanday shakllangan va qanday muammolar mavjudligi, xorijiy mamlakatlarda xususiy maktablarni boshqarishning qanday zamonaviy modellaridan foydalanilayotgani va O‘zbekiston sharoitida xususiy maktablar boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun qanday mexanizmlar ishlab chiqilishi mumkinligi bilan bog‘liq masalalarni qamrab oldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xususiy maktablarning samarali faoliyat yuritishi ularning boshqaruv tizimi va tashkiliy tuzilmasi bilan bevosita bog‘liq. Ilg‘or xorijiy tajribalar va O‘zbekiston sharoitidagi mavjud amaliyotlar asosida xususiy maktablarning boshqaruv strukturasini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi muhim jihatlar aniqlandi.

Xususiy maktablarning tashkiliy tuzilmasi va uning ta’lim sifatiga ta’siri

Xususiy maktablarning samarali boshqaruvi ko‘p darajali tashkiliy tuzilma orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, rivojlangan mamlakatlarda xususiy maktablarning boshqaruv modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Strategik boshqaruv – direktor, ta’lim kengashi va muassasa egasi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda matabning umumiy rivojlanish strategiyasi, moliyaviy barqarorlik va brend siyosati belgilab beriladi.

Akademik boshqaruv – o‘quv dasturlari, pedagogik kadrlar va baholash tizimini nazorat qiladi. Finlandiya va Avstraliya tajribalariga ko‘ra, akademik mustaqillik ta’lim sifatining asosiy omili hisoblanadi.

Ma’muriy boshqaruv – marketing, hujjatlar yuritish va ota-onalar bilan muloqotni tashkil etadi. Xususiy maktablarning muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillar qatorida raqamli boshqaruv tizimlarining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy boshqaruv – ta’lim muassasasining moliyaviy resurslarini boshqarish va barqarorlikni ta’minlash bilan shug‘ullanadi. Germaniya va Gollandiya xususiy maktablari davlat va xususiy sektor sherikchiligi asosida barqarorlikni ta’minlaydi.

O‘zbekiston sharoitida ko‘pgina xususiy maktablarda yuqoridagi tarkibiy tuzilma to‘liq shakllanmagan. Tadqiqot davomida o‘rganilgan maktablarning aksariyatida boshqaruvning akademik va moliyaviy jihatlari tizimli emasligi aniqlandi. Ko‘plab maktablarda direktor va asosiy boshqaruv xodimlari ko‘p funksiyalarni bir vaqtning o‘zida bajarishga majbur bo‘lib, bu ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xorijiy tajribalar asosida samarali boshqaruv modellarining shakllanishi

Rivojlangan mamlakatlardagi xususiy maktablarda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha samarali boshqaruv yondashuvlari mavjud. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilg‘or tajribalar O‘zbekiston sharoitida qo‘llanishi mumkinligi aniqlandi:

Finlandiya modeli – akademik boshqaruv mustaqilligi va o‘qituvchilarining yuqori darajadagi avtonomiysi asosida ishlaydi. Bu model o‘qituvchilarining ijodiy yondashuvini qo‘llab-quvvatlaydi va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Germaniya modeli – ta’lim va amaliyotni integratsiyalashgan holda olib borish, ya’ni dual tizim orqali maktab bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish imkonini beradi.

Avstraliya modeli – xususiy mакtablarni boshqarishda mijoz yo‘naltirilgan yondashuv va marketing strategiyalaridan foydalanish orqali ta’lim muassasasining barqarorligini ta’minlashga qaratilgan.

Janubiy Koreya modeli – ta’lim jarayonining avtomatlashtirilishi va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quv jarayonining individualizatsiyasiga asoslangan.

Gollandiya modeli – xususiy mакtablarga akademik va moliyaviy avtonomiya berilishi natijasida ularning ta’lim standartlari xalqaro darajada rivojlanishiga imkon yaratilgan.

O‘zbekiston sharoitida ushbu modellarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etish qiyin bo‘lsada, ularning muayyan elementlarini o‘zlashtirish orqali xususiy ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimini takomillashtirish mumkin.

Xususiy mакtablarda boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar

Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston xususiy mакtablari boshqaruv tizimini samarali tashkil etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Tashkiliy tuzilmani modernizatsiya qilish – xususiy mакtablarda akademik, moliyaviy va marketing bo‘limlarini alohida ajratish, boshqaruvning samaradorligini oshirish.

Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish – ta’lim jarayonida raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish, masalan, sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish va tahlil qilish.

Moliyaviy boshqaruvni mustahkamlash – xususiy mакtablarga davlat tomonidan subsidiya yoki grantlar ajratish tizimini yo‘lga qo‘yish, Gollandiya modeliga asoslanib xususiy mакtablarga qo‘srimcha moliyaviy mustaqillik berish.

Kadrlar malakasini oshirish – xususiy maktab rahbarlari va o‘qituvchilar uchun menejment bo‘yicha xalqaro tajribalarga asoslangan maxsus o‘quv dasturlarini joriy qilish.

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish – davlat va xususiy maktablar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, ta’lim dasturlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish.

Marketing strategiyalarini rivojlantirish – xususiy maktablar o‘z xizmatlarini targ‘ib qilish va ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnatish uchun professional marketing strategiyalarini qo‘llashi lozim.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, xususiy maktablar tashkiliy tuzilmasining aniq belgilangan strategiya asosida shakllanishi ta’lim sifatini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribalar va O‘zbekiston sharoitidagi amaliy tahlillar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar xususiy maktablarni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqola natijalari kelgusida xususiy maktablar menejmenti bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda, shuningdek, ta’lim muassasalari rahbarlari uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1. Bray, M. (2021).** Shadow Education in Private Schools: Global Patterns and Implications. Springer.
- 2. Davies, S., & Guppy, N. (2019).** The Schooled Society: The Educational Transformation of Global Culture. Oxford University Press.
- 3. Muller, J., & Kogan, M. (2020).** School Governance and Autonomy in Private Education: Lessons from Europe. Palgrave Macmillan.
- 4. Belfield, C., & Levin, H. M. (2021).** Privatizing Education: Can the School Marketplace Deliver Freedom of Choice? Harvard University Press.
- 5. Hannaway, J., & Carnoy, M. (2022).** Decentralized School Governance and Private Sector Participation: A Comparative Analysis. World Bank Publications.